

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IJTIMOYIY - IQTISODIY HAYOTINI  
ISLOH QILISHDA YEVROPA ITTIFOQINING «TASIS»  
DASTURI VA UNING AHAMIYATI**

*Murtazayev Ibrohim*

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali biz O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy - iqtisodiy hayotini isloh qilishda Yevropa Ittifoqining «TASIS» dasturi va uning ahamiyati qanchalik sezirarli holatda ekanligini yozib o‘tamiz.

**Kalit so‘zlar:** TASIS, Yevropa ittifoqi, hamkorlik, TEFAP, VARMAP loyihasi, biznes–fondi, TRASEKA.

O‘zbekiston mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqorolik jamiyatini shakllantirishni bosh maqsad qilib belgiladi. “...Mamlakatimizni isloh etish va yangilashga qaratilgan dasturiy vazifalarni bajarishda biz – deydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov – milliy qadriyatlarimiz, urf– odat va an‘analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga katta e‘tibor qaratdik. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanadigan zamonaviy demokratik davlat qurishning o‘zini oqlagan jahon tajribasini chuqur o‘rganish va qabul qilish ham diqqatimiz markazida bo‘ladi”<sup>1</sup>.

Mamlakatda tub islohotlarni amalga oshirish yo‘lida jahondagi yirik rivojlangan davlat va turli xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqalarni o‘rnatib, ularning e‘tiborini respublika oldida turgan muammolarning yechimini topishga jalb qila boshladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan o‘rnatilgan hamkorlik aloqalari va jumladan, uning TASIS dasturi doirasidagi loyihalarning bajarilishi yosh rivojlanayotgan mamlakat uchun ayni muddao bo‘ldi.

Yevropa Ittifoqining TASIS<sup>2</sup> (Tasis – Teshnical Assistance to Commonwealth of states) dasturi iqtisodiyotning muhim istiqbolli tarmoqlarini hamda hukumatga konsalting xizmatlarini ko‘rsatishni ko‘zda tutadi<sup>3</sup>. Ushbu dastur Yevropa Ittifoqi tomonidan yangi mustaqil davlatlar uchun (sobiq Sovet ittifoqi davlatlari, Boltiqbo‘yi davlatlaridan tashqari) ishlab chiqilgan bo‘lib, unda iqtisodiy– siyosiy hamkorlikni rivojlantirish va uyg‘unlashtirishda ko‘maklashish ko‘zda tutilgan<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Каримов И. А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 2007, – Б. 6-7.

<sup>2</sup> ТАСИС – «Техникал асистанс» МДН мамлакатларига техник ёрдам кўрсатиш дастури.

<sup>3</sup> ЎЗР МДА. Фонд – м-2, рўйхат – 1, жилд – 169, varaқ – 37.

<sup>4</sup> Практическое руководство по организации программы ТАСИС. Европейская комиссия, Брюссель, 1995, –С. 6.

Aslida, Yevropa Ittifoqining TASIC dasturini tashkil etish g'oyasi 1990 yil dekabrda Rimda bo'lib o'tgan Yevropa Kengashi yig'inida paydo bo'lgan<sup>5</sup>. Kengash yig'inida Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga a'zo– mamlakatlar Sovet Ittifoqini islohot o'tkazish tashabbusini qo'llab– quvvatlash to'g'risida qaror qabul qildi. TASIC dasturi Yevropa Kengashi tomonidan №2157/91 qarori asosida 1991 yil iyulda qabul qilindi va shu yilning dekabr oyida dastur doirasida amalga oshirilishi va moliyalashtirish lozim bo'lgan ishlar rejalashtirib tugallandi<sup>6</sup>. Biroq, Sovet Ittifoqini parchalanib ketishi natijasida, 1992 yil dasturni qayta ko'rib chiqish zaruriyati kelib chiqdi.

TASIC dasturi juda keng qamrovli bo'lib, mustaqil va xususiy iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik, moliya organlari va shu tizim faoliyatini takomillashtirish, bank ishi, transport va aloqa, energetika, atrof–muhit himoyasi, qishloq xo'jaligi, bojxona va statistika, huquqiy va umumsiyosiy muammolarda konsalting, narkotik moddalar tarqalishini nazorat qilish, aholi turmush tarzini yaxshilash, demokratik institutlarni ko'paytirish va boshqa sohalarni rivojlantirishga yordam beradi<sup>7</sup>.

Ta'kidlash joizki, Yevropa Ittifoqi TASIC dasturi orqali O'rta Osiyo va Mongoliya<sup>8</sup> respublikalariga iqtisodning yangi modellarini rivojlantirishda, demokratik tamoyillar va inson resurslarini mustahkamlashda, shu bilan birga xalqaro hamjamiyatga kirib borishlarida yordam berish uchun ular bilan ko'p muddatli o'zaro munosabatlarni o'rnatgan.

1992 yil fevralida TASIC dasturi yangi 12ta<sup>9</sup> mustaqil davlat tomonidan «rozilik haqidagi protokoli» imzoladi<sup>10</sup>. Barcha a'zo – davlatlar uchun 1992 yil iyunidan sentyabrigacha alohida dastur ishlab chiqildi.

Seminarda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida fermerlikni tashkil qilish va bu sohada mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish masalalari ko'rildi. TASIC–TEFAP loyihasi TASIC dasturining agrar sohaga yo'naltirgan 12ta loyihasidan biri bo'lib, O'zbekistonda 1996 yil iyundan faoliyat boshlagan. Jumladan, 1997 may oyigacha ushbu loyiha asosida 16ta seminar o'tkazilib, unda 350 kishi o'qib chiqdi. Shu bilan birga mahalliy o'zbek mutaxassislaridan 3 guruhi Buyuk Britaniyada bo'lib, u yerdagi fermerlar hayoti, xo'jaligi bilan tanishib, tajriba almashib qaytdi<sup>11</sup>.

TASIC dasturi doirasida oziq-ovqat ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyiha amaliyotga tadbiiq qilindi. Bu loyiha Samarqand viloyati

<sup>5</sup> Ўша жойда.

<sup>6</sup> Ўша жойда.

<sup>7</sup> ЎЗР МДА. Фонд – м-2, рўйхат – 1, жилд -169, варақ – 37.; Н.А. Касымова ва С.А. Жўраев.

Актуальные вопросы современных международных отношений. – Т.: Академия, 2008. – С. 233.

<sup>8</sup> Монголияда ТАСИС дастури 1994 йилдан фаолият бошлаган.

<sup>9</sup> Арманистон, Азарбайджон, Беларуссия, Грузия, Қозоғистон, Қирғизистон, Молдавия, Россия Федерацияси, Тожикистон, Туркменистон, Украина ва Ўзбекистон.

<sup>10</sup> Практическое руководство по организации программы ТАСИС. Европейская комиссия, Брюссель, 1995, –С. 6.

<sup>11</sup> Практическое руководство по организации программы ТАСИС. Европейская комиссия, Брюссель, 1995, –С. 6.

Bulung'ur tumanida amalga oshirildi. Loyiha 1997 yil nihoyasiga yetdi va Bulung'urlik tadbirkor fermerlar yaxshi natijalarga erishdilar<sup>12</sup>.

O'zbekiston geografik jihatdan qulay iqlim sharoiti mo'tadil bo'lib, Yevropa Ittifoqining TASIC dasturi doirasida «O'zgeokadastr» bilan hamkorlikdagi loyiha ishlab chiqilgan bo'lib, unda o'lkamizning iqlim sharoiti, tuproq tarkibi, tabiiy resurslarini tadqiq qilinishiga ko'maklashish ko'zda tutilgan.

Yevropa Ittifoqining TASIC dasturi ekologik masalalarga ham alohida e'tibor berib kelmoqda. Shu asosda, respublikamizda atrof-muhit himoyasi va Orolbo'yi aholisiga ko'maklashuv tadbirlariga qaratilgan VARMAP loyihasi asosida bir qancha amaliy ishlar bajarildi. Bunda Orolbo'yi aholisiga dori-darmon va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun moliyaviy ko'mak berildi. Ular asosan Butunjahon banki tomonidan moliyalashtiriladi. Bu loyihani hayotga joriy etishda O'zbekiston tabiatni himoya qilish Qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirliklari hamkorlikda faoliyat olib boradilar<sup>13</sup>.

Telekommunikatsiya sohasida ham TASIC dasturi doirasida maxsus loyiha ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Ushbu loyihadan ko'zlangan bosh maqsad, mamlakatimizda zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, modernizatsiyalash, jahon andozasiga moslashtirish edi<sup>14</sup>. Yevropalik mutaxassislar loyihani O'zbekiston aloqa vazirligi, Toshkent aloqa instituti, Telekommunikatsiya markazi bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirdilar.

O'zbekistonda TASIC dasturi doirasida maxsus markazlar tashkil qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi "biznes-fondi", tovar ishlab chiqarish va tadbirkorlar Palatasi, ishbiarmon yoshlar Respublikasi assotsiatsiyasi tashabbusi bilan "Yangi texnologiyalar markazi" tashkil etildi. Bundan asosiy maqsad, mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, kadrlar tayorlash va malakasini oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu markaz Yevropa talablari darajasidagi auditoriyalar, kompyuter zali va zamonaviy kutubxonaga egadir. Qisqa davrda Angliya va Italiyadan kelgan mutaxassislar tomonidan bozor iqtisodiyoti va uni rivojlantirish bo'yicha bir nechta darslar tashkil qildi. Darslarda qatnashgan 130 ta mutaxassislar shu sohadagi bilimlarni boyitdi. Yangi dars olib borish metodikalari o'zlashtirdi. Markaz o'qituvchilari xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlikda biznes, iqtisodiyotga oid o'quv metodik qo'llanmalar yaratdilar<sup>15</sup>.

O'zbekistonda TASIC dasturi asosidagi yana bir muhim loyiha o'z faoliyatini 1998 yilda boshladi. Bu loyiha "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurish akademiyasi xizmatchilari malakasini oshirish hamda ta'lim

<sup>12</sup> Узбекистан – ТАСИС: Результаты и перспективы // Народное слово. – 1997. – 1 июль.

<sup>13</sup> Узбекистан – ТАСИС: Результаты и перспективы // Народное слово. – 1997. – 1 июль

<sup>14</sup> Ўша жойда.

<sup>15</sup> Практическое руководство по организации программы ТАСИС. Европейская комиссия, Брюссель, 1995, –С. 6.

olishga ko‘maklashish” deb nomlanib, 1999 iyunida yakunlandi. Ushbu loyihani bajarishda Yevropa Ittifoqi komissiyasining TESIS dasturi tomonidan ko‘zlangan maqsad davlat va jamiyat qurish akademiyasini zamon talablari darajasida modernizatsiya qilish hamda texnik, metodik, inson resurslarini rivojlantirishga yordam ko‘rsatish bo‘ldi. Loyihani amalga oshirishda 5 ta Yevropa tashkiloti va Germaniya, Niderlandiya, Fransiya kompaniyalari ishtirok etdi<sup>16</sup>.

TESIS dasturi doirasida Yevropa Ittifoqi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida intellektual mulk himoyasi va inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi hamkorlik ishlari ham yaxshi yo‘lga qo‘yildi. Bu borada 1997 yil sentyabr oyida TESIS dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsion sudida “Konstitutsion sud: faoliyatning yangi turlari” mavzusida Yevropa Konstitutsion huquq markazi hamkorligida seminar bo‘lib o‘tdi<sup>17</sup>. Bu seminar TESIS dasturining «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsion sudiga ko‘mak» loyihasi doirasida amalga oshirildi. Seminar davomida Konstitutsion sud tuzilishi, funksiyasi, zamonaviy sud talablariga javob berishi hamda konstitutsiya qonunlarining bajarilish nazorati kabi masalalar muhokama qilindi. O‘z navbatida, Yevropa Konstitutsion sudlari modeli muhokama qilinib, GFR, Italiya, Fransiya sudlari tajribasi misolida ko‘rildi va Konstitutsion sudning asosiy vazifasi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilishini oldini olish ekanligi ta’kidlandi<sup>18</sup>.

Ushbu seminarida ishtirok etgan xalqaro ekspertlar tomonidan O‘zbekiston Konstitutsiyasiga yuqori baho berilib, u mamlakatda barqaror, demokratik tamoyillar asosidagi fuqorolik jamiyatini qaror toptirishda va huquqiy insonparvar davlat qurishda ishonchli huquqiy asos bo‘lib xizmat qilayotgani ta’kidlandi. Shuningdek, seminar ishtirokchilari O‘zbekiston Konstitutsion sudi faoliyati bilan ham tanishib, unga yuqori baho berdilar va xalqaro inson huquqlari hamda erkinliklari talablariga to‘la javob berishi qayd etildi.

TESIS dasturi doirasida o‘tkazilishi an’anaga aylanib borayotgan turli sohadagi seminar va ilmiy konferensiyalardan yana biri 1997 yil oktyabr-noyabr kunlari Toshkent shahrida Toshkent davlat yuridik instituti va Yevropa siyosati instituti hamkorligida o‘tkazildi. Ushbu xalqaro seminar «Malaka oshirayotgan yurist va talabalarni inson huquqlari sohasida ta’lim olishi» mavzusiga bag‘ishlandi va u Yevropa Ittifoqining «Yurist kasbi erkinligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ta’lim dasturi» loyihasi hisoblanib, maxsus o‘quv kursi yordamida tashkil qilindi. Darslarni Bilston jamoatchilik kolleji professor– o‘qituvchilari, O‘zbekiston Respublikasi va Buyuk Britaniya o‘qituvchilari olib bordilar. O‘quv kursini tamomlaganlarga xalqaro

<sup>16</sup> Узбекистан – ТАСИС: Результаты и перспективы // Народное слово. – 1997. – 1 июля

<sup>17</sup> В Конституционном суде Республики // Народное слово. – 1997. – 12 сентябрь.

<sup>18</sup> В Конституционном суде Республики // Народное слово. – 1997. – 12 сентябрь.

sertifikatlar topshirildi hamda shu soha bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida dars o'tish huquqi berildi.

TASIS dasturi loyihalaridan biri ayollarning jamiyat hayotidagi roliga bag'ishlangan bo'lib, uning amalga oshirilishida O'zbekiston Respublikasi faol ishtirok etdi. Bu loyiha «Ayollar va Demokratiya» deb nomlanib, 1997 yil boshlaridan boshlab yil oxirigacha davom etdi.

Loyihaning bajarilishi bo'yicha 1997 yil 24 noyabrda Toshkent shahrida hisobot yig'ini bo'lib o'tdi<sup>19</sup>. Bu tadbir O'zbekiston olim ayollarining «Olima» assotsiatsiyasi hamda Buyuk Britaniyaning Bilston jamoatchilik kolleji hamkorligida o'tkazildi<sup>20</sup>.

Shu sohada 1997 yil oktyabr oyida xalqaro seminar tashkil etildi<sup>21</sup>. Bu muhim tadbir Yevropa Konstitutsion huquq markazi tashabbusi bilan tashkil etilib, unda xalqaro ekspertlar, Konrad Edunauer Fondi va Amerika vakillari hamda Germaniya, Gresiyalik Konstitutsion sud sudyalari, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, advokatlar, ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari, olim – huquqshunoslar va mutaxassislar ishtirok etishdi. Seminar «Konstitutsion sud xodimlari ma'muriyati faoliyati» mavzusiga bag'ishlandi. Seminar jarayonida Germaniya, Chexiya, Shveysariya konstitutsion sud yuristlari assotsiatsiyasi, respublika vazirlik va idoralari, Avstriya konstitutsion sudlar faoliyatini, tuzilishi, vakolatini amalga oshirish metodlari bilan tanishib, AQSh va Gresiya sudlari, ularning ish uslublari tahlil qilindi. Muhokama davomida fuqarolarning sudga murojaatlari va shu jarayon bilan bog'liq masalalar xususida fikr almashildi<sup>22</sup>.

Yevropa Ittifoqi TASIS dasturining e'tiborli tomoni yana shundaki, ushbu dastur doirasida yana bir nechta ixtisoslashtirilgan maxsus dasturlar mavjud. Bunday dasturlarning O'zbekistonda ham joriy qilinishi Yevropa Ittifoqi tomonidan ko'zda tutilgan. Jumladan, Markaziy Osiyo hududidan o'tgan qadimiy Buyuk Ipak yo'lini zamonaviy texnologiya asosida tiklash maqsadida TRASEKA nomini olgan maxsus ixtisoslashtirilgan loyiha ishlab chiqildi. Ushbu loyiha 1993 yildan o'z faoliyatini boshladi<sup>23</sup> va uni amalga oshirish uchun dastlab jami 28 mln EKYu ajratildi<sup>24</sup>.

Ta'kidlash joizki, TASIS dasturi doirasida Yevropa Ittifoqining texnikaviy yordamini amalga oshirish orqali "TRASEKA" loyihasini ro'yobga chiqarish,

<sup>19</sup> Роль женщин в демократическом обществе // Народное слово. – 1997. – 25 ноябрь.

<sup>20</sup> В Конституционном суде Республики // Народное слово. – 1997. – 12 сентябрь.

<sup>21</sup> Ўша жойда.

<sup>22</sup> Роль женщин в демократическом обществе // Народное слово. – 1997. – 25 ноябрь.

<sup>23</sup> Агар ушбу лойихани пайдо бўлиш тарихига назар ташласак, 1993 йил майда Европа комиссияси томонидан ТРАСЕКА лойихаси Брюсселда олға сурилган. Форумда 8 давлат: Арманистон, Грузия, Азарбайжон, Қозоқистон, Тожикистон, Туркменистон, Қирғизистон, Ўзбекистон иштирок этган. Бу транспорт йўлини бунёд этиш Марказий Осиё ва Кавказ давлатларининг иқтисодий ва сиёсий мустақиллигини қўлаб қувватлаш, Европа ва жаҳон бозорига чиқиш имкониятларини кенгайтиради.

<sup>24</sup> Европейская Комиссия: Программа ТАСИС: Годовой отчет за 1996 год: Европейская Комиссия, Брюссель, 1997, – 46 с.

O'zbekiston uchun transport kommunikatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan noqulayliklarni bartaraf etishda g'oyat istiqbolli ahamiyatga ega.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. ТАСИС – «Техникал асистанс» МДН мамлакатларига техник ёрдам кўрсатиш дастури.
2. ЎзР МДА. Фонд – м-2, рўйхат – 1, жилд – 169, варақ – 37.
3. Практическое руководство по организации программы ТАСИС. Европейская комиссия, Брюссель, 1995, –С. 6.
4. ЎзР МДА. Фонд – м-2, рўйхат – 1, жилд -169, варақ – 37.; Н.А. Касимова ва С.А. Жўраев. Актуальные вопросы современных международных отношений. – Т.: Академия, 2008. – С. 233.